ADABIYOTSHUNOSLIK

UDK: 821.111(075.8) **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss2/a80**

“BOBURNOMA” MATNIDA FOYDALANILGAN SAJ’I MUTARRAFNING INGLIZ TILI TARJIMALARIDA AKS ETTIRILISHI

ОТРАЖЕНИЕ САДЖИ МУТАРРАФ ИСПОЛЬЗУЕМОЙ В ТЕКСТЕ «БОБУРНОМА» В АНГЛИЙСКОМ ПЕРЕВОДЕ

REFLECTION OF SAJ’I MUTARRAF USED IN THE TEXT "BOBURNOMA" IN ENGLISH TRANSLATION

Sherg‘oziyev Shuhrat Sheraliyevich[1]

[1]Sherg‘oziyev Shuhrat Sheraliyevich – Namangan muhandislik-texnologiya instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada «Boburnoma»dagi qofiyali saj’larning ingliz va Amerika tarjimonlari (Leyden-Erskin, A.S.Beverij va V.Tekston) tomonidan amalga oshirilgan tarjimalarida asliyatda foydalanilgan qofiyali saj’larning tarjimasi haqida so‘z yuritilgan. Tarjimon mahorati, sharq adabiyoti bilimdoni, asliyat muallifi uslubi, milliy o‘ziga xoslik va davr ruhini tarjimada aks ettirilishi ifodalab berilgan. Shuningdek, tarjimonning so‘z tanlash mahorati, saj’larning tarjimada asliyat ruhiyatini saqlab qolish va tarjimada aks ettirishning ahamiyatli tomonlari to‘g‘risida bayon etilgan.

Аннотация

В данной статье речь идет о переводе рифмованных саджей в «Бобурноме», которые изначально использовались в переводах, выполненных английскими и американскими переводчиками (Лейден-Эрскин, А.С. Беверидж и У. Текстон). Выражены мастерство переводчика, знатока восточной литературы, стиль автора оригинала, отражение национального самосознания и духа времени в переводе. Также разъясняется мастерство переводчика в выборе слов, важные аспекты сохранения духа оригинала в переводе и отражения его в переводе.

Abstract

This article discusses about the translation of the rhyming saj’s in the "Boburnoma" that were originally used in the translations made by English and American translators (Leyden-Erskine, A.S. Beveridge and W. Thackston). The skill of the translator, the scholar of oriental literature, the style of the original author, the reflection of the national identity and the spirit of the time in the translation are expressed. It is also explained about the translator's skill of choosing words, the important aspects of preserving the spirit of the original in the translation and reflecting it in the translation.

Kalit so‘zlar: *saj’, joy nomlari, proza, qofiya, xarbiy terminlar, muqobil, qo‘lyozma, asliyat matni, lingvomadaniyat, tarixiy shaxslar,*

Ключевые слова: *садж, топонимы, проза, рифмовка, военные термины, альтернатива, рукопись, оригинальный текст, лингвокультура, исторические личности,*

Key words: *saj, toponyms, prose, rhyming, military terms, alternative, manuscript, original text, linguistic culture, historical figures.*

KIRISH

“Boburnoma”dek tarixiy memuar asarni tarjima qilish amaliyotida tarjimonlar oldida deyarli barcha vazifalar turadi. Asl matnni tashkil etuvchi iboralar, matn, arxaizm, joy nomlari, madaniy va milliy urf odatlar, voqealik va qahramonlar sifatlarini ifodalovchi saj’ kabi san’at turini tushunmagan tarjimon uchun o‘zbek an’anaviy nasrining mohiyatini to‘liq ochib berish oson emas. Bu borada Q.Musaev quyidagi fikrlarni bildiradi: “O‘zga tilda bitilgan badiiy yodgorlikning davr talabi darajasida tasavvur beradigan tarjima matnini yaratish san’atkorning bu sohadagi amaliy va nazariy bilimlar bilan puxta qurollanishi zaruratini tugdiradi. Chunki badiiy mahorat sirlarini har tomonlama mukammal egallab olgan qalamkashgina mazkur ijod mahsuli bo‘lmish fikrni asli-monand tarzda ifoda etish san’atini o‘zida puxta singdirib olgan iste’dod sohibi sifatida to‘laqonli badiiy tarjimalar yaratishdek o‘ta mas’uliyatli ishning uddasidan chiqishi mumkin”[1.b-3] Albatta bunday nodir memuar asarni asliyatdagi ma’nosini saqlagan holda o‘zga bir tilga tarjima qilish mushkul vazifadir. Bilamizki tarixiy asarlarni tarjima qilishda tarjimondan asliyatda keltirilgan ma’lumotlar haqida naqadar chuqur bilimga ega bo‘lishi, asar yozilgan davlat aholisining ijtimoiy iqtisodiy hayoti, o‘sha davr hukmdorlari va amaldorlari, ilm fan doira vakillari to‘g‘risida berilgan ma’lumotlarni kitobxonga aslicha yetkazish eng oliy maqsaddir. “Boburnoma”ning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shuki

ADABIYOTSHUNOSLIK

Bobur asarni yozishda saj'lardan mohirona foydalangan. B.Sarimsoqov muallifni saj'dan foydalanish xususida quyidagilarni keltirib o'tadi: "Boburnoma" XVI asr badiiy nasri namunasi bo'lganligi uchun ham muallif o'z memuarida tarixiy voqealarni quruq xronologik bayon qilmay, ularni obrazli til bilan, turli badiiy-tasviriy vositalar yordamida ifodalaydi. Shunday badiiy-tasviriy vositalardan biri klassik nasrimiz uchun eng xarakterli hisoblangan san'at saj' hisoblanadi. Garchi XVI asr prozasida musajja' usuli XV asrdagidek yetakchi mavqega ega bo'lmasa-da, biroq u "Boburnoma" kabi asarlar uchun qo'llanishi zarur bo'lgan an'anaviy usul hisoblanar edi. Shuning uchun ha saj' muallifning turli tarixiy shaxs, tarixiy voqealarga nisbatan subyektiv-emotsional munosabatini ifodalovchi san'at sifatida juda ham o'rinli qo'llanilgan." [2.b-122] Darhaqiqat asar o'quvchiga tushunarli bo'lishi uchun adabiyot va she'riyat ilmini mukammal egallagan Bobur o'z davriga xos badiiy usullardan mohirona foydalangan. Asarda saj' san'atidan foydalanishi esa voqealik, joy nomlari, tarixiy shaxslar tasviri va ularning kechinmalarini ifodalashda yanada tushunarli, sodda va shu bilan birga mukammal asarga aylantirdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Saj' san'atining yana bir turi qofiyali saj' (saj'i mutarraf).bo'lib "Bir yoki bir necha gapdagi ayrim bo'laklar vaznda emas, faqat ravishdagina mos bo'ladilar" [2.b-19] Boburnomada muallif tomonidan bu turdagi saj'dan ham keng qo'llanilgan. Asarda ko'plab amirlar va beklar qatorida Xusravshohning nasl nasabi, harbiy yurishlari va hayoti haqida ko'p ma'lumotlar keltirilgan. Shayboniyxon va Xusravshox o'rtasidagi to'qnashuvlarning birini quyidagicha ifodalaydi; *"Xusravshox,bo'laklang lavandni yig'ib yaxshi-yomon mingcha kishisi bila Qunduzni qaramoq doyasi bila kelib, bir-ikki yog'och Xoja Chortoqqa tushdi. Muxammad Shayboniyxonkim, Andijonda Sulton Ahmad Tanbalni olib Xisor ustiga mutavajjix, bo'lg'on bila* ***urushsiz va taloshsiz*** *viloyatlarni tashlab chiqtilar"*[3.b-123] Xusravshoh "Sulton Maxmud Mirzoning amiri hamda o'g'li Sulton Mas'ud Mirzoning bekotkasi. Yoshligida tarxon beklariga, keyin Mazidbek Arg'unga xizmat qilgan. Iroq voqeasidan so'ng Sulton Maxmud Mirzoni Xisorga olib qochgan beklar safida bo'lgan. Ko'ngilochar bazmlar uyushtirishni xush ko'rgani bilan Sulton Maxmud Mirzoga yoqib qolib, uning eng yaqin beklaridan biriga aylangan. 1494-yil Sulton Axmad Mirzo kutilmaganda vafot etib, Samarqand taxtiga Sulton Maxmud Mirzo o'tirganda, u Xusravshoxni Xisor hokimi etib tayinlagan. Ulug' amir darajasiga ko'tarilib navkarlari soni olti ming va Amudaryodan Xindukush tagigacha hudud uning tasarrufida bo'lgan" [4.b-553] Bobur keltirgan jumlada Shaybonixon Xisorga qarshi yurish qilganda beklar unga qarshi hech qanday harbiy harakat yoki himoyalanish ishlarini olib bormaganlarini viloyatni tashlab ketganlarini ***"urushsiz va taloshsiz viloyatlarni tashlab chiqtilar"*** deb yozadi va jumlada "urushsiz va taloshsiz" saj'idan foydalanganini ko'rishimiz mumkin.Tarixdan bizga ma'lumki davlatlar, qabilalar, yoki ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi bo'lgan qurolli jang va to'qnashuvlarda tinch aholi va askarlar orasida ko'plab qurbonlar yo'qotishlar bilan birga shahar qishloq vayron qilish va tinch aholini talash, mol mulkini zo'rlik bilan olib qo'yish hattoki qul qilish holatigacha olib kelgan. Yuqorida keltirilgan ayanchli va shafqatsizlikni Bobur ikki so'z bilan ***"urushsiz va taloshsiz"*** tarzida ifoda etgan. Urush qanday oqibatlarga olib kelishini bilgan o'quvchi bu ikki so'z qanday ma'noga ega ekanligini anglashlari qiyin emas.Beklar ilojsizlikdan Shayboniyxonning harbiy qudrati ularga nisbatan ancha ustun ekanligidan va ichki nizolar sabab urushsiz tark etishgan edi.

Leyden-Erskin yuqorida keltirilgan misolni quyidagicha tarjima qilgani ko'rishimiz mumkin *"After Muhammed Sheibani Khan had taken Sultan Alimed Tambol in Andejan, he had advanced against Hissar; upon which Khosrou Shah, without either battle or effort, had abandoned his territories and fled"* [5.b-223] *(Muhammad Shayboniyxon Andijonda Sulton Ahmad Tambalni qo'lga kiritgach, Hisorga qarshi yurish qildi; Buning ustiga Xosrushoh na jangsiz va na qiyinchiliksiz o'z hududlarini tashlab, qochdi. MT)* **"urushsiz va taloshsiz"** jumlasini tarjimon "without either battle or effort," tarzida o'girib "Either" olmoshining **"Either... or...", "yoki…yoki"** [6.b-128] shaklidagi bog'lovchisidan foydalanadi. So'zlar ma'nosidan ko'rishimiz mumkinki tarjimon Xisorga yurish qilgan Shayboniyxonga qarshi yoki jang qilmadi yoki mudofaaga tayyorgarliklar ko'rmay qiynalmagan holda viloyatni tashlab ketganini o'quvchiga yetkazishga harakat qilgan. Keltirilgan tarjimada **"urushsiz va taloshsiz"** saj'i asliyatga nisbatan o'z xususiyatni yo'qotgan va ma'nosi ham biroz o'zgargan.

Beverij tarjimasini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak: *At the time Shaibaq Khan, after overcoming Sultan AhmadTambal and Andijan, made a move on Hisar, his Honour Khusrau flung away his country (Qunduz and Hisar)* ***without a blow struck****, and saved himself.* [7.b-244] *(Bu vaqtda Shayboqxon Sulton AhmadTambal va Andijon ustidan g‘alaba qozonib, Hisorga hujum qildi, Xusrav Shoh o‘z yurtini (Qunduz va Hisor) dushmanga hech qanday zarba bermay tashlab qochdi va o‘z jonini saqlab qoldi.MT).* Beverij asliyatda kelgan **“urushsiz va taloshsiz”** jumlasini ***“without a blow struck”*** iborasini qo‘llagan holda ya’ni, *“bironta zarbasiz*” shaklida tarjima qilgan. ***« without a blow struck”*** iboarsini ta’rifiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak “to do something that supports or defends something” [8], (biror narsani qo‘llab-quvvatlaydigan yoki himoya qiladigan biror nima qilish) Demak Shayboniyxonning bostirib kelishiga qarshi hech qanday chora ko‘rmaganini yoki himoya ishlarini olib bormaganini shu ibora orqali ta’riflab o‘tgan. Asliyatda kelgan ***“urushsiz va taloshsiz”*** saj’i o‘z xususiyatini yo‘qotgan.

Yuqorida keltirilgan jumlani Tekston misolida ko‘rib chiqamiz: *“Muhammad Shaybani Khan, who had taken Sultan-Ahmad Tambal in Andizhan, moved against Hissar and left the province without a battle or engagement.”* [9.b-197] *(Andijonda Sulton-Ahmad Tambalni asir olgan Muhammad Shayboniyxon Hisorga qarshi harakat qilib, viloyatni jangsiz yoki kelishuvsiz tark etadi.MT)* Leyden-Erskin va Beverij ***“urushsiz va taloshsiz”*** jumlasini ikki xil tarjima qilgan bo‘lsalar Tekston ham ulardan farqli ravishda ***“without a battle or engagemen”*** tarzida ya’ni ***“jangsiz yoki kelishuvsiz”*** deb tarjima qiladi. Shayboniyxonni Hisorga yurishiga qarshi jang qilmaganini hech bo‘lmaganda hududi va hokimyatni saqlab qolish uchun kelishuv yoki sulh tuzmasdan viloyatni tashlab ketdi ma’nosida tarjima qiladi. Tekston tarjimasida **“engagement”** so‘zini ishlatadi. Inglizcha-o‘zbekcha lug‘atidan **“engagement”** so‘zi ot so‘z turkumida kelgan bo‘lib *“ish, mashg‘ulot: uchrashuv: taklif: majburiyat.”* [10.b-181] kabi ma’nolarni ko‘rishimiz mumkin. Balki Tekston so‘zning *“majburiyat”* ma’nosiga e’tibor qaratgan holda Xusravshox viloyat amiri sifati o‘z majburiyatni bajarmagani va dushmanga qarshi himoya chorasini ko‘rmaganini ta’kidlagandir. Oxford lug‘atida *“engagement”* so‘zining bir nechta izohlari berilgan bo‘lib urush ma’nosidagi shakliga quyidagicha izoh berilgan *“fighting between two armies”* [11.b-508] ya’ni ikki “qo‘shin o‘rtasidagi jang” muallifni bir jumlada ikki bir ma’noni beradigan so‘zlarni ishlatmaganini inobatga olsak *“engagement”* so‘zini tinchlikni saqlash maqsadida dushmanga *“taklif”* sifati qabul qilsak maqsadga muvofiq bo‘lardi. Shu o‘rinda aytishimiz mumkinki “Tarjima o‘z tabiati bilan ham original ijod jarayonidan farq qiladi. Yozuvchi hayot voqealaridan olgan mushohadalarini tilda badiiy ifodalasa, tarjimon asl nusxa matnini yangi til vositasida qayta gavdalantiradi. Tarjimon muallifning g‘oyaviy-estetik dunyosi, kitobxonni rom etgan jozibani yangi o‘quvchilarga yetkazishga bel bog‘lagan kishi.” [12.b-98] Albatta yuqorida misollari keltirilgan uch tarjimonlarimiz ham Bobur davrida bo‘lib o‘tgan voqealikni o‘z kitobxonlariga tushunarli va shu bilan birgalikda asliyatda kelgan ma’noni o‘zgartirmagan holda yetkazib berishga harakat qilishgan.

USLUB

Maqolada fikr yuritilgan qofiyali saj va ularning tarjimalarini o‘rganishda chog‘ishtirma, qiyosiy-tarixiy va pragmatik tahlil tadqiqot metodlari qo‘llanilgan. Maqolani yozish mobaynida tarjimada qofiyali saj’larni tanlash, so‘z va iboralarni o‘zbek va ingliz tillaridagi muqobil so‘zlarni solishtirish, qiyoslash, va tavsiflash usullaridan foydalanildi.

NATIJA

“Boburnoma” tarjimalaridagi saj’larni asliyatdagidek o‘qigan har qanday kitobxon tarjimonni tajriba va iqtidor egasi ekanligini anglab olishi mumkin. Asarni A.Beverij, Leyden-Erskin va V.Tekstonnig ingliz tilidagi tarjimalari bo‘yicha o‘rganish, qofiyali saj’ tarjimalarini amalga oshirishda qanday yo‘l tutish kerakligi bo‘yicha fikrlar keltirilgan va matndagi ma’no qay darajada saqlab qolinganligi maqolada keltirilgan.

XULOSA

Tarjima jarayonida “Boburnoma” matni g‘oyasi uning uslubiy jihatlari bilan hamohang bo‘lib, tarjimada muallifning o‘ziga xos uslubda qofiyali saj’dan qay darajada foydalanganini ko‘rsatish uchun tarjimondan iste’dod, mahorat, sharq adabiyoti bilimdoni va katta tajriba talab etadi. Bobur voqealikni ifodalashda ishlatgan qofiyali saj’ tarjimada o‘z husisyatitani yo‘qotgan bo‘lsa-da tarjimon o‘quvchiga matnda kelgan mazmunni yetkazishga harakat qiladi. Saj’ kabi nozik san’at turlari ishtirok etgan asarlarini asl ma’no va shakllari, ohangdorlikni saqlagan holda tarjima qilish albatta bir muncha qiyinchiliklar keltiradi. G‘.Salomov ta’kidlaganidek: “Asl nusxa bilan tarjima tili bevosita

bir-biriga teng emas. Ikki tilning lisoniy imkoniyatlari bir-biriga “ekvivalentlik” holatida bo‘lmaydi. Shu sababdan ko‘r-ko‘rona tarjima qilish mumkin emas. So‘zlarning aniq mazmuni bilan estetik sifatlari o‘zaro bir-birining o‘rnini qoplay olmaydi. Shuning uchun ham tekstning tili qanchalik serma’no, badiiy tarafdan serjilo bo‘lsa, tarjima shunchalik qiyinlashadi” [12.b-49]

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. -Toshkent. «FAN» 2005

2. Sarimsaqov B. O‘zbek adabiyotida saj’. -Toshkent. «FAN» 1978

3. Zahiriddin Muhammad Bobur. «Boburnoma» -Toshkent «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2002

4. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. – Тошкент. «Шарқ» 2014

5. Leyden J., W.Erskine. Memoirs of Zehired-din Muhammed Babur, Emperor of Hindustan.− Edinburg, 1826.

6. G‘apporov M., Qosimova P. Ingliz tili grammatikasi.-Toshkent. «Turon-iqbol» 2010

7. Beveridge A.S., The Bābur-nāma in English (Memoirs of Babur), Translated from the Original Turki Text of Zahiru’ddin Muhammad Babur Padshah Ghazi by Annette, Susannah Beveridge. 2 Vols, – London, 1922; Repr, in one Volume, – London, 1969; – New Delhi, 1970; – Lahore, 1975.

8. https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/strike-a-blow-for

9. The Baburnama. Memoirs of Babur, Prince and Emperor, Translated, Edited, and, Annotated by Wheeler M., Thackston. – New York & Oxford, 1996

10. Butayev Sh., Irisqulov A., English-Uzbek Uzbek-English Dictionary. «Фан».Тошкент.2008.

11. Oxford Advanced learner’s Dictioary.Oxford Unoversity Press, India 2016.

12. Саломов Ғ. Таржима назариясига кириш.-Т.Ўқитувчи,1978

(Taqrizchi - D.M.Xoshimova, filologiya fanlari doktori, professor)